



Fidoyilik –
Vatanga xizmat demak!

2026-yil 27-iyun, shanba,
57 (24.237)-son

Erkin va
mas'uliyatli, xalqchil
jurnalistikani
jamiyat va davlat
rivojlanishining
zarur shartlaridan
biri deb bilamiz.

Shavkat
MIRZIYOYEV.

1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan



www.zarnews.uz



https://www.facebook.com/zarnews.uz



@zarnews_uz



https://twitter.com/zarnews_uz



info@zarnews.uz

MUSTAQILLIK

35



YAGONA VATAN, YAGONA XALQ BO'LIB,
YANGI HAYOT VA KELAJAK YARATAMIZ!



MATBUOT VA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI XODIMLARIGA

Qadrlı do'stlar!

Siz, azizlarni – mamlakatimizning bosma va internet nashrlari, teleradiokanallar, axborot va media xizmatlarida, nashriyot va matbaa korxonalariida sidqidildan mehnat qilayotgan ijodiy va texnik xodimlarni, zahmatkash jurnalistlar, muhtaram faxriylarni kasb bayramingiz bilan chin qalbimdan tabriklayman.

Men sizlarni – yuksak bilim va salohiyatga ega, vatanparvar barcha jurnalistlarni o'zim uchun doimiy maslakdosh, jonkuyar do'st deb bilishimni yana bir bor izhor etaman.

Bu yil ushbu qutlug' ayymon milliy matbuotimiz asosi – jadid bobolarimiz tomonidan "Taraqqiy" gazetasi tashkil etilganiga 120 yil, yurtimizda radioeshittirishlar ilk bor tajriba tariqasida uzatilganiga 100 yil to'lgan kunlarda nishonlanayotgani unga alohida shukuh bag'ishlamoqda.

Biz bundan o'n yil oldin demokratiya, ochiqlik va shaffoflik tamoyillari, "Inson qadri uchun, inson baxti uchun!" degan ezgu g'oyaga tayangan holda Yangi O'zbekistonni qurishga kirishgan edik. O'tgan qisqa davrda ko'p millatli xalqimizning fidokorona va sharaflı mehnati bilan bu borada ulkan yutuqlarni qo'lga kiritdik.

Jumladan, jamiyatimizda so'z erkinligini ta'minlash, ommaviy axborot vositalarini qo'llab-quvvatlash, davlat organlari faoliyatining ochiqligini kengaytirish, axborot sohasini raqamlashtirish va zamonaviy mediamakanni shakllantirish borasida e'tiborga loyiq ishlar amalga oshirilmoqda.

Yaratilgan mustahkam huquqiy asos, berilgan imtiyoz va preferensiyalar natijasida sohaning moddiy-texnik bazasi mustahkamlanib, uning tarkibida xususiy sektorning ulushi yildan yilga oshib bormoqda. Hozirgi kunda qariyb 2 ming 700 ta ommaviy axborot vositalarining 67 foizi, noشرlik subyektlarining 90 foizdan ortig'i, matbaa korxonalarining 83 foizi nodavlat sektor hissasiga to'g'ri kelmoqda. Joriy yilda nashriyotlarning ishlab chiqarish quvvati o'tgan yilga nisbatan ikki barobar ortib, o'rtacha 15 ming nomdagi jami 60 milliondan ortiq nusxada kitoblarni nashr etildi.

Mazkur ko'rsatkichlar mamlakatda axborot sohasini liberallashtirish, kitobxonlik madaniyatini oshirish, media faoliyatini qo'llab-quvvatlash ishlari hamda axborot xizmatlari bozori kengayib borayotganidan dalolat beradi.

Axborot oqimi keskin ortib, dipfeyk texnologiyalari keng tarqalayotgan bugungi davrda manbalarning ishonchli ekaniga alohida e'tibor qaratish zarur. Shu bilan birga, mahalliy aholi ko'nikmaga aylandi. Qisqa vaqtda turli media loyihalar orqali 10 ming yoshni qamrab oladigan zamonaviy ta'lim tizimi shakllantirildi.

Hurmatli ommaviy axborot vositalari xodimlari!

Biz erkin va mas'uliyatli, xalqchil jurnalistikani jamiyat va davlat rivojlanishining zarur shartlaridan biri deb bilamiz. Bu borada ommaviy axborot vositalari xodimlari faoliyati uchun imkoniyatlarni yanada kengaytirish, ularning huquq va manfaatlarini himoyasini kuchaytirish, kasb mahorati va malakasini oshirish, jumladan, ijtimoiy himoyasini ta'minlash, mehnatini rag'batlantirish, sog'lig'ini mustahkamlash va yashash sharoitlarini yaxshilashga qaratilgan yangi chora-tadbirlar amalga oshiriladi.

Shuningdek, O'zbekiston Jurnalistlar uyushmasi faoliyatini takomillashtirish, uning nufuzini oshirish va islohotlar jarayonidagi ishtirokini kengaytirish zarur deb o'ylayman. Nega deganda, tez o'zgarayotgan bugungi davrning o'zi ushbu jamoat birlashmasi oldiga yangi va dolzarb vazifalarni qo'ymoqda. Jurnalistlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularga huquqiy va informatsion-texnologik yordam ko'rsatish, har tomonlama qo'llab-quvvatlash hamda kasbiy birdamligini ta'minlash kabi masalalarga jiddiy e'tibor qaratishni hayotning o'zi taqozo etmoqda.

Bu borada ilk bor mamlakatimiz bo'ylab uch oy davomida 12 mingdan ortiq soha vakillari, jumladan, yosh jurnalistlarni jalb qilgan holda o'tkazilgan Media haftalik tadbirlarini kelgusida ham davom ettirish muhim ahamiyatga ega.

Men mamlakat rahbari sifatida milliy ommaviy axborot vositalarimiz davlat va jamiyat o'rtasida mustahkam ko'priq vazifasini bajarish barobarida xalqimizni umummilliy manfaatlar asosida birlashtiradigan, yurtdoshlarimiz, ayniqsa, yoshlarimizni ezgu maqsadlar sari yetaklaydigan qudratli ma'naviy kuchga aylanishi uchun barcha yordam va ko'makni ko'rsatishga doimo tayyorman.

Muhtaram matbuot ahli!

Fursatdan foydalanib, bugungi quvonchli sana munosabati bilan yuksak davlat mukofotlariga sazovor bo'lgan soha xodimlarini chin qalbimdan samimiy tabriklayman.

Sizlarni kasb bayramingiz bilan yana bir bor qutlab, barchangizga mustahkam sog'liq, oilaviy baxt-saodat, faoliyatingizda yangi muvaffaqiyatlar tilayman.

Qalamingiz hamisha o'tkir, so'zingiz haqqoniy va ta'sirchan, ijodingiz barakali bo'lsin!

Shavkat MIRZIYOYEV,
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

► 27-iyun – Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni



Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni oldidan jurnalistlar uyushmasi viloyat bo'limi Toyloq tumani hokimligi bilan hamkorlikda mazkur tumanga press-tur tashkil etdi.

Dastlabki manzilimiz tumanda hozircha yagona bo'lgan "Behbudiy vorislari" xususiy ta'lim maskani bo'ldi. 2025-yil ochilgan, 250 nafar o'quvchiga mo'ljallangan ta'lim klasterida joriy yildan 400 nafargacha yoshlar ta'lim olib, oliy ta'lim muassasasiga kuzatiladi. Maktabda mehnat qilayotgan 50 dan ortiq o'qituvchi va xodimlarning mahorati tufayli 76 nafar o'quvchi maktabni bitirmasdan oliy ta'limga kirish uchun sertifikatni qo'lga kiritdi. Turkiyada o'tkazilgan xalqaro olimpiadada 16 nafar o'quvchi yuqori o'rinlarni egallagan.

Toyloq Mahmudxo'ja Behbudiy tavallud topgan zamin va bu yerda adibga alohida ehtirom ko'rsatiladi. O'tgan yil tadbirkor A.Xodiyev adib tug'ilgan Baxshite-

TOYLOQDAGI O'ZGARISHLAR JURNALISTLAR NIGOHIDA

pa mahallasida "Behbudiy kutubxonasi" tashkil etgan, 15- va 17-umumta'lim maktablarida har oy 30 nafar o'quvchiga "Behbudiy stepindiyasi" beriladi. Mahalla markazida "Mahmudxo'ja Behbudiy bog'i", "Mahmudxo'ja Behbudiy kutubxonasi va uy-muzei", "Mahmudxo'ja Behbudiy ilm nuri maskani" nomli o'quv markazi tashkil etilib, Mahmudxo'ja Behbudiyning byusti o'rnatilgan.

Keyingi manzilimiz tumanda tashkil etilgan "Amir Temur bog'i" bo'ldi.

- Buyuk sarkarda va davlat arbobi Amir Temur tavalludining 690 yilligi munosabati bilan tumanimizning O'rtaqishloq mahallasida Amir Temur bog'i barpo etildi, - deydi "Qo'shchinor" gazetasi muharriri Mo'tabar Yo'ldosheva. – Tarixga nazar tashlasangiz Amir Temur ko'plab bog'lar barpo etgan va jumladan, bizdagi Bog'izog'on bog'i ham ana shu bog'lardan biri hisobla-

nadi. Shu bois, sarkarda nomi bilan ataladigan bog' hududi to'liq obodonlashtirilib, Amir Temur haykali qayta ta'mirlandi.

Tuman hokimi Behzod Rahmatullaev jurnalist va soha xodimlari bilan uchrashuvda hududda olib borilayotgan ishlar xususida ma'lumot berdi.

- Tumandagi 50 ta mahalla dehqonchilik, chorvachilik hamda xizmat ko'rsatishga ixtisoslashgan, shundan 17 ta mahalla chuqur, 25 ta mahalla o'rta va 8 ta mahalla past ixtisoslashgan, - deydi B.Rahmatullaev. - Joriy yil yakuniga qadar 10 ta mahalla chuqur ixtisoslashuvga o'tkaziladi. Yil yakuni bilan tumanni ishsizlikdan xoli hududga aylantirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar belgilab olganmiz. Jumladan, 25,4 ming aholi daromadi oshirildi, 4,5 mingdan ortiq aholi doimiy ish o'rniga ega bo'ladi, 2,6 mingta yashirin ish o'rne soyadan chiqarilib,

ishsizlik darajasi 3,2 foizga pasaytiriladi.

Toyloq tumanida amalga oshirilayotgan bunyodkorlik va ma'naviy-ma'rifiy loyihalar hududning ijtimoiy infratuzilmasini yanada rivojlantirish, yoshlar uchun keng imkoniyatlar yaratish hamda tarixiy va milliy qadriyatlarini asrab-avaylashga xizmat qilmoqda. Kelgusida ta'lim, madaniyat va ma'naviyat yo'nalishlarida yangi loyihalarni amalga oshirish orqali aholi farovonligini oshirish va yoshlarning intellektual salohiyatini yuksaltirish bo'yicha ishlar izchil davom ettiriladi.

Shundan so'ng soha xodimlari o'rtasida sport musobaqalari, jumladan, futbol bo'yicha bahslar o'tkazildi.

O'ktam
XUDOYBERDIYEV.



Mazkur maqolaning to'liq matnini ushbu QR-kod orqali o'qishingiz mumkin.

Viloyat hokimi
Adiz Boboyev
Samarqand
shahrida aholi
uchun sayyor qabul
o'tkazdi.
Sayyor qabulda
700 dan ortiq
murojaat qayd
etildi.



Mukofotlar muborak!



Davlatimiz rahbarining "Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni munosabati bilan soha xodimlaridan bir guruhini mukofotlash to'g'risida"dagi farmoniga ko'ra, «Zarafshon» va «Самаркандский вестник» gazetalarini tahririyati katta musahhihi **Mustakimov Rim Munirovich "Do'stlik" ordeni** bilan taqdirlandi.



"Ovozi Samarqand" gazetasi muxbiri **Dilafruz Obloqulova "Oltin qalam"** milliy mukofoti uchun xalqaro tanlovning "Umummilliy hamjihatlikni targ'ib qilish va mustahkamlashga qaratilgan eng yaxshi materiallar uchun" nominatsiyasi g'olibi bo'ldi.

O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi tomonidan e'lon qilingan "MTRK Award" media mukofoti an'anaviy ko'rik-tanlovida **"Samarqand" radiokanalining "Xabarlar"** dasturi jamoasi g'olib deb topildi.

Hamkasblarimizni
mukofotlar bilan
tabriklaymiz!

Tizimli nazorat va monitoring zarur

26-iyun kuni xalq deputatlari viloyat Kengashining navbatdagi o'ttiz ikkinchi sessiyasi o'tkazildi.

Kengash raisi Sh.Negmatov boshqargan sessiyada deputatlar, kun tartibidagi masalalarga daxldor boshqarma va idoralar rahbarlari, Oliy Majlis Senati mudofaa va xavfsizlik masalalari qo'mitasi raisi o'rinbosari B.Abdullayev ishtirok etdi.

Kun tartibiga muvofiq, dastlab Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 18-dekabrda "Ijtimoiy soha muassasalari, umumiy ovqatlanish shoxobchalari va viloyatlararo avtomobil yo'llari bo'yidagi jamoat hojatxonalarining sanitariya-gigiyena tizimini yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori ijrosi yuzasidan amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasi viloyat boshqarmasi boshlig'i v.b. R.Qurbonov hisobot berdi.

Qayd etilishicha, joriy yilning 5 oyi davomida viloyatdagi 1030 ta ta'lim muassasasida nazorat tadbirlari o'tkazilib, qonunbuzilish ho-

latlari aniqlangan 474 ta muassasa mas'ullariga nisbatan ma'muriy choralar qo'llanilgan, 21 ta muassasa faoliyati kamchiliklar bartaraf etilgunga qadar vaqtincha to'xtatilgan hamda tibbiy ko'rikdan o'tmagan 59 nafar xodim ishdan chetlashtirilgan. Shu bilan birga, ayrim maktabgacha ta'lim tashkilotlari va umumta'lim maktablarida hojatxonalarining ta'mirlash holatida ekanligi, qo'yuvish uchun yetarli sharoitlar yaratilmaganligi, dezinfektsiya ishlari talab darajasida yo'lga qo'yilmaganligi qayd etilgan. Buning oqibatida yilning birinchi choragida viloyatda bolalar o'rtasida virusli gepatitning "A" turi kasalligi va parazitlar kasalliklari o'sish holati kuzatilgan.

Sog'liqni saqlash muassasalarida 332 ta davlat sanitariya tekshiruvlari o'tkazilib, sanitariya talablariga rioya etilmagan 20 ta davolash-profilaktika muassasasi faoliyati vaqtincha to'xtatilgan, 15 ta muassasa rahbarlariga taqdimnomalar kiritilgan hamda 194 nafar mas'ul xodimga nisbatan ma'muriy choralar qo'llanilgan.

Deputatlar hisobot yuzasidan savol va takliflari

bildirdi. Gap inson salomatligi bilan bog'liq ekan, bu borada tizimli nazorat va monitoring ishlari yo'lga qo'yish zarurligini ta'kidladilar.

Shundan so'ng jamoat ehtiyojlari uchun yer uchastkalarini olib qo'yilishiga ruxsat berish, o'zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalari hamda ularda qurilgan binolar va inshootlarga bo'lgan huquqlarni e'tirof etish, Kattaqo'rg'on tumani Melix'o'ja mahallasi hududida "Elektrotexnika mahsulotlari ishlab chiqaruvchi sanoat zonasi" tashkil etish, viloyatda festivallar, tomosha-konsert va yirik ommaviy tadbirlarni tizimli tashkil etish chora-tadbirlarini tasdiqlash to'g'risidagi va Kengash vakolatiga tegishli boshqa masalalar ko'rib chiqilib, qarorlar qabul qilindi.

Sessiyada Oliy Majlis Senati a'zosi B.Abdullayev kun tartibidagi masalalar muhokamasida deputatlarning faol ishtiroki muhimligini ta'kidladi, shuningdek, mutasaddilar axborot va hisobotlari yuzasidan qabul qilingan Kengash qarorlarining ijrosini ta'minlashda samarali nazorat o'rnatish zarurligini qayd etdi.

Bundan 10-15 yil avval davlat organlari yoki yirik tashkilotlarning axborot xizmatlari, degan vazifa qog‘ozdagina bor edi. Ammo keyingi yillarda manzara butunlay o‘zgardi: matbuot kotibi (axborot xizmati rahbari) boshqaruv tizimining eng strategik lavozimlaridan biriga aylandi.

Endi bemalol axborot xizmatlarini jamiyat va davlat o‘rtasidagi ko‘prik, deyish mumkin. Lekin bu ko‘prik qanchalik mustahkam? Undan ikki tomonlama harakat xavfsiz va erkin amalga oshirilyaptimi yoki u yerda hanuz «nazorat-o‘tkazish maskani»ning eski qoidalari hukmronmi?

RASMIYATCHILIKDAN FAOLLIKKA
So‘nggi yillarda O‘zbekistonda va umuman, Marka-ziy Osiyo hududida axborot xizmatlari faoliyatini tubdan isloh qilish bo‘yicha ulkan qadamlar tashlandi. Matbuot kotiblarining maqomi oshirildi, ularga qo‘shimcha vako-latlar berildi.

Pirovardida ilgari biror favqulodda hodisa yoki ijti-moiy tarmoqlarda shov-shuvga sabab bo‘lgan voqea yuz bersa, davlat tashkilotlarining rasmiy munosabatini kunlab, ba‘zan haftalab kutishga to‘g‘ri kelardi. Bugun esa axborot xizmatlarining aksariyati raqamli ma-kondagi trendlarni kuzatib boradi. Infodemiya (yolg‘on axborotlar oqimi) sharoitida boshqaruv idoralarining matbuot kotiblari rasmiy bayonotlarni bir necha soat, hatto daqiqalar ichida taqdim eta boshladi.

Bundan tashqari, axborot xizmatlari bugun o‘z media mahsulotlarini yaratuvchi kichik tahririyatlarga aylangan. Ular murakkab raqamlar va iqtisodiy ko‘rsatkichlarni oddiy xalq tushunadigan vizual shaklga keltirmoqda.

Dayjestlar, «kadr ortidagi hayot» ruknlari, qisqa videoroliklar (Reels, Shorts) orqali davlat organlari faoli-yati «insoniy qiyofa» kasb eta boshladi.

Bugun deyarli barcha davlat organlari, tuman va shahar hokimliklarining Telegram, Facebook, Instagram va YouTube tarmoqlarida rasmiy sahifalari mavjud. Ular faqat axborot tarqatish maydoni emas, balki fuqarolar-ning murojaatlari bilan ishlaydigan platformaga ham aylandi. Ijtimoiy tarmoqlardagi munosabatlar ko‘plab tizimli muammolarning tezkor hal etilishiga turtki bo‘lmoqda.

Eng muhim yutuqlardan biri, matbuot kotibining

Raqamli asrda axborot xizmatlari kerak(mi?)

tashkilot ierarxiyasidagi o‘rni o‘zgargani bo‘ldi. Ular ko‘p joylarda rahbarning axborot siyosati bo‘yicha maslahatchisi darajasiga ko‘tarildi. Bu ularga tashkilot ichidagi eng muhim va yopiq qarorlardan ham birinchi bo‘lib xabardor bo‘lish va jamiyatga to‘g‘ri tushuntirish imkoniyatini beriyapti.

OG‘RIQ, KAMCHILIK VA MUAMMO
Ijoiy tomonlarni e‘tirof etgan holda, tizimda ha-li-hamon jurnalistlarning ham, keng jamoatchilikning ham haqli e‘tirozlariga sabab bo‘layotgan tizimli nuqsonlar mavjudligini ta’kidlash joiz. Axborot xizmat-lari tez-tez «axborotni to‘suvi to‘siq» yoki shunchaki «bo‘yoqchilik» (PR va xayp) bilan shug‘ullanuvchi organ sifatida tanqid qilinmoqda.

Ko‘plab matbuotkotiblarining eng katta xatosi - ular o‘zlarini davlat yoki xalq manfaatlariga emas, balki o‘z rahbarlarining shaxsiy imijiga xizmat qiluvchi shaxslar deb bilishadi.

Oqibatda axborot xizmati xabarlarining 80 foizi «Falonchi Pismadonchievich u yerga bordi», «Falonchi Pismadonchievich raisligida yig‘ilish o‘tdi», «Rahbarimiz topshiriq berdi» qabilidagi materiallardan iborat bo‘lib qolmoqda.

Bundan tashqari, ijoiy yangiliklar bo‘lganda juda faol bo‘lgan matbuot kotiblari tashkilot tizimida korrup-siya holati aniqlanganda, avariya sodir bo‘lganda yoki jiddiy xatolikka yo‘l qo‘yilganda «g‘oyib bo‘lib» qoli-shadi.

Vaholanki, inqirozli vaziyatda axborot xizmati sukut saqlasa, bu sukut jamoatchilik tomonidan «aybni tan olish» yoki «haqiqatni yashirish» sifatida qabul qilinadi. Oqibatda bo‘shliqni turli mish-mish va feyk xabarlar to‘ldiradi.

Aksariyat axborot xizmatlari hanuz OAV va blogerlar tomonidan aytilgan sog‘lom tanqidni to‘g‘ri qabul qila olmaydi. Tanqidiy material chiqqanda ular tanqidning negizini o‘rganmasdan, darhol «Bu xabar haqiqatga to‘g‘ri kelmaydi, sudga beramiz» deb bosim o‘tkazishga



tushadi.

Ayrim hollarda jurnalistning o‘zini qoralash, uning o‘tmishi yoki xatolarini qidirish, tanqid qilgan OAV vakil-larini «qora ro‘yxat»ga kiritish, ularning qo‘ng‘iroqlari-ga javob bermaslik ham yangi davrda kuzatilayotgan muammolar sirasiga kiradi.

Shuningdek, ayrim hollarda matbuot kotibi vazifasiga sohadan yiroq bo‘lgan, jurnalistika yoki PR asoslari-ni bilmaydigan odamlar tayinlanadi. Buning oqibatida matnlarda imloviy va uslubiy xatolar juda ko‘p kuzati-layotgani kelgusida boshqa og‘riqlarga sabab bo‘lishi turgan gap.

Afsuski, eng katta muammo sifatida ba‘zan bo‘lsa-da, matbuot kotibiga SMM-menejer, fotograf, video-montajchi va hatto rahbarning shaxsiy kotibi sifatida qaralayotganini aytib o‘tish lozim. Axir bir odam buncha ishning ichida sifatli axborot siyosatini yurita olmay-di-ku!

TIZIM NEGA OQSAMOQDA?
Axborot xizmatlarini faqat ayblash noinsoflik bo‘lar edi. Zotan, ularning bunday ahvolda tushib qolganining obyektiv va subyektiv sabablari bor.
Matbuot kotibi qanchalik zamonaviy bo‘lmasin, uning faoliyati baribir o‘z tashkiloti rahbariga bog‘liq.

Ko‘plab rahbarlar esa hanuz OAVni o‘zlariga dushman yoki «ayb qidiruvchi» organ deb biladi. Ular matbuot ko-tibiga «Tashkilotimiz haqida faqat yaxshi gaplar chiqsin, yomonlarini yop» degan topshiriq beradi. Bunday sha-roitda matbuot kotibi erkin ishlay olmaydi.

Qonunchilikda matbuot kotibining maqomi belgi-langan bo‘lsa-da, amaliyotda ular o‘z rahbari oldida ojiz. Agar u jurnalistga rahbari istamagan, lekin jamiyat uchun muhim bo‘lgan to‘g‘ri ma‘lumotni bersa, ishdan bo‘shatilishi yoki bosimga uchrashi mumkin. Afsuski, ularni himoya qiladigan mustaqil tizim mavjud emas.

Fikrimizcha, axborot xizmatlari shunchaki «press-reiz tarqatuvchi avtomat» bo‘lib qolmasligi, balki jamiyat rivojiga xizmat qilishi uchun tegishli qadamlarni amalga oshirishi zarur, deb hisoblayman. Jumladan, axborot xizmatlarining faoliyatini baholash mezon-i rah-barning rasmlari soni bilan emas, balki aholini qiynayot-gan savollarga qanchalik aniq va foydali javob berilgani bilan o‘lchanishi kerak.

Bugun axborot maydonidagi shiddatli raqobat davri-da yashayapmiz. Agar davlat tashkilotlarining axborot xizmatlari o‘z faoliyatini eskicha usullar, taqiqlar, maq-tovlar va yopiqlik ustiga qursa, bundan faqat davlat va jamiyat yutqazadi. Chunki axborot makonidagi bo‘shliqni baribir kimdir to‘ldirayotganini ko‘rib, guvohi bo‘lib turibmiz.

Shuning uchun axborot xizmatlari jurnalistlarni o‘zlariga sherik, deb bilishlari kerak. Jurnalistik surish-tiruvlar uchun ma‘lumotlarni yashirmasdan, aksin-cha, muammoni birgalikda ochish va uning yechimini ko‘rsatish tizimiga o‘tish lozim.

Va albatta, buning uchun matbuot kotiblarining mustaqilligi masalasini ko‘rib chiqish shart. Toki, ularni ishga tayinlash va bo‘shatish masalasi faqat tashkilot rahbarining xohishi bilan emas, balki ixtisoslashgan yuqori turuvchi axborot idora bilan kelishilgan holda amalga oshirilishi kerak. Shu orqali ularga ma‘lum ma’noda daxlsizlik va xolislik berilishi mumkin.

XULOSA
Axborot xizmati - bu tashkilotning ko‘zgusi. Ko‘zguni sindirish yoki uni bo‘yash bilan yuzdagi dog‘lar yo‘qolib qolmaydi. Shaffoflik, tanqidga ochiqlik va tezkorlik bugungi davrning eng oliy talabidir. Faqatgina jamiyat bilan ochiq va samimiy muloqot qila oladigan axborot xizmatlarigina xalqning ishonchini qozona oladi va dav-latning xalqchil bo‘lishiga hissa qo‘shadi.

Y.MARQAYEV.

► Bizning suhbat

Jurnalistika o‘zgarmaydi, jamiyatning unga munosabati o‘zgaradi

Bugun axborot maydoni shiddat bilan o‘zgarib, an‘anaviy matbuot va ijtimoiy tarmoqlar o‘rtasidagi kurash qizg‘in pallaga kirgan bir davrda, asl jurnalistikaning vazifasi nimadan iborat, degan savol tez-tez quloqqa chalinmoqda. Kimdir soha-nining kelajagini faqat internetda ko‘rsa, boshqa bir tomon matbuotning tarbiyaviy kuchi hali so‘nmaganini ta’kidlaydi.

27-iyun — Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni arafasida ko‘p yillik tajribaga ega, sohaning ichidagi va tashqaridagi jarayonlarni teran tahlil qila oladigan suhbatdosh – faxriy jurnalist Nusrat Rahmatdan bugungi o‘zbek jurnalis-tikasining yutuq va yo‘qotishlari, so‘z erkinligining asl mezonlari hamda blogerlik va jurnalistika o‘rtasidagi chiziqlar haqidagi savollarimizga javob oladi.

- Ustoz, jurnalistikani kimdir jamiyat ko‘zgu-si, kimdir xalq va davlat o‘rtasidagi ko‘prik, yana kimdir to‘rtinchi hokimiyat, deb tariflaydi. Ko‘p yillik tajribangizdan kelib chiqib, Siz qan-day ta’riflagan bo‘lardingiz?

- Jurnalistikani bitta qolipga solib bo‘lmaydi. U siz aytgan barcha ta’riflarni o‘zida mujassam etadi. Uning vazifalari va imkoniyatlari shu qadar kengki, birgina ta’rif bilan cheklash mushkul. Shu bilan birga, men jurnalistikaning yana bir muhim jihatiga e’tibor qaratgan bo‘lardim bu — xalqlar do’stli-giga xizmat qilish vazifasi. Bugungi globalashuv davrida turli millat va elatlar bir-biriga yanada yaqinlashmoqda. Bunday jarayonda jurnalistika na-faqat axborot yetkazuvchi, balki xalqlarni bir-biriga bog‘lovchi ma’naviy ko‘prik vazifasini ham bajari-shi kerak. Jurnalistikaga ko‘proq mana shu nuqtai nazardan qarash lozim.

– Faoliyatingizni boshlagan davr bilan bu-gungi kunni taqqoslaganda, o‘zbek jurnalis-tikasida nimalar o‘zgardi? Nimalar yo‘q edi–yu, nimalar paydo bo‘ldi? Nimalar bor edi –yu, nimalar yo‘q bo‘ldi?

– U paytlar sobiq ittifoq davri edi. Ochig‘i, jurn-alistikaning asl mohiyatini ham unchalik chuqur anglab yetmagandik. Qishloq xo‘jaligi sohasini tamomlaganman, jurnalistikaga kirib kelishim-ga esa aynan shu sohada amalga oshirilayotgan ishlarni yoritadigan mutaxasssiga ehtiyoj tug‘ilgani sabab bo‘ldi.

Keyinchalik viloyat va respublika miqyosidagi bir qator ommaviy axborot vositalarida faoliyat olib bordim. Oradan yillar o‘tib, bugungi jurnalistika va matbuotni o‘sha davr bilan qiyoslasam, katta farqni ko‘raman. Albatta, kamchiliklar ham yo‘q emas. Ba‘zan istagan odam istagan mavzuda yozayotgani, saviyasi past materiallar ham uchrab turishi mumkin. Biroq bu jarayonlarga yakuniy bahoni vaqt va tarix beradi. Muhimi, bugun avvalgidek qat’iy senzura yo‘q. Fikr bildirish, voqea-hodisalarni turli nuqtai nazardan yoritish imkoniyatlari ancha kengaydi. Bu esa jurnalistikaning rivojlanishi va jamiyatdagi o‘rnini mustahkamlashda muhim omillardan biri.

– Rivojlangan davlatlar odamlarida haliyam rasmiy OAVga ishonch yuqori. Misol uchun, Yaponiya yoki AQShda gazetalarining o‘z o‘quv-chilari bor. Tahlillarga ko‘ra, bizda muayyan bir davrda rasmiy OAV ijtimoiy-siyosiy hayotdan uzoqlashib ketgani uchun internet paydo bo‘li-shi bilan o‘z o‘rnini yo‘qotdi. Bu haqda sizning fikringiz qanday?

– E’tibor bersangiz, biz uzoq vaqt internetni



qoralash bilan ovora bo‘ldik. Dastlab unga jiddiy qaramadik ham. “Internet odamning o‘rnini bosa olmaydi”, “Har narsaning o‘z o‘rni bor”, degan qarashlar keng tarqalgan edi. Ammo bugun sun’iy intellekt degan yangi hodisa paydo bo‘lib, ko‘plab kasb egalari uchun jiddiy raqobat muhitini yuzaga keltirmoqda. Ayrim sohalarda u inson bajarayotgan vazifalarni o‘z immasiga ola boshladi. Demak, biz murosasiz raqobat davrida yashayapmiz.

Gazetalar adadi kamayib ketgani menimcha, buning sababini faqat internetdan izlash to‘g‘ri emas. Bu avvalo, gazetachilarning o‘ziga bog‘liq masala. Ayrim mamlakatlarda gazeta o‘quvchilari saqlanib qolayotgan bo‘lsa, bu jurnalistlarning mehnati, o‘quvchi ehtiyojini to‘g‘ri anglay olgani-ning natijasidir.

Jurnalist xalqning istak va ehtiyojlarini o‘rgani-shi, shundan kelib chiqib ijod qilishi kerak. O‘quvchi nimani istayotganini bilmasdan turib, uni gazeta yoki kitobga qaytarib bo‘lmaydi. Shu ma’noda gazetalar butunlay yo‘qolib ketadi, degan fikrga qo‘shilmay-man. Internetning ham, gazetaning ham jamiyatda o‘z o‘rni bor. Kelajakda bu ikki maydon bir-birini inkor etmaydi, aksincha, to‘ldirib boradi. Sohaga kirib kelayotgan yosh va salohiyatli kadrlar esa bu masala-niing yangi yechimlarini topishiga ishonaman.

- Oxirgi vaqtlarda turli minbarlarda turli shaxslarga qarata eng ko‘p berilayotgan savol-lardan biri: Siz O‘zbekistonda so‘z erkinligi darajasini qanday baholaysiz?

– Bu savolga javob berish uchun avvalo, o‘n-o‘n besh yil avvalgi ommaviy axborot vositalari faoli-yatini bugungi holat bilan qiyoslab, chuqur tahlil qilishimiz zarur. Shundagina xolis xulosa chiqarish

mumkin bo‘ladi.

Shaxsan men bu borada ma‘lum ma’noda oldinga siljiyotganimizni ko‘raman. Albatta, hali yechimini kutayotgan muammolar ham yo‘q emas. Ularning aksariyati jurnalistlarning o‘z faoliyati bilan bog‘liq. Xususan, qonunchilikni yetarli darajada bilmaslik, voqea-hodisalarni chuqur tahlil qila ol-maslik, masalaning asl mohiyatini anglamaslik kabi kamchiliklar ayrim hollarda sezilib turadi.

Yana bir muhim jihatga to‘xtalmoqchiman. Biz mentalitet va demokratiya tamoyillari haqida gapirganda, ularni so‘z erkinligi masalasi bilan bog‘laymiz. Biroq aslo bu tushunchalarni bir-biriga qarama-qarshi qo‘ymasligimiz kerak. Aslida men-talitet, demokratiya va so‘z erkinligi bir-birini inkor etadigan emas, balki to‘ldiradigan tushunchalardir. Eng muhimi, ularni xalqimiz manfaatlari yo‘lida oqilona uyg‘unlashtira olishimizdir. Ana shundagina jamiyat taraqqiyoti va jurnalistikaning rivoji uchun mustahkam asos yaratiladi.

– Bugun jamiyatda jurnalistlardan ko‘ra blo-gerlar ko‘payib boryapti. Siz bloger va jurnal-istning farqini qanday tushuntirgan bo‘lardin-giz?

– Bloger va jurnalistni taqqoslaganimizda, ko‘pincha blogerlarni saviyasizlikda ayblaymiz. Aslida bu bilan bilvosita o‘zimizni saviyaliriq deb hisoblayotgan bo‘lamiz. Agar shunday ekan, nega endi ularni chetga surishimiz yoki kamsitishimiz kerak? Aksincha, bag‘rikeng bo‘lib, ularning ham saviyasi oshishiga yordam berishimiz lozim. Axir ular ham shu xalqning bir bo‘lagi, shu jamiyatning a‘zolari.

To‘g‘ri, blogerlar orasida mayda mavzularga beriladiganlari, yetarli tahlilsiz yoki saviyasi past materiallar tayyorlaydiganlari ham bor. Bu fikrga qisman qo‘shilish mumkin. Lekin o‘sha “mayda gaplar” deb qaralayotgan ayrim masalalarni ko‘ta-rish uchun jurnalistda yetishmayotgan jur‘at ba‘zan blogerda topiladi.

Buning ham o‘ziga yarosha sabablari bor. Ak-sariyat blogerlarning asosiy daromad manbai blog yuritish emas. Ularning kasbi, boshqa tirikchilik manbai bo‘ladi. Jurnalist esa ko‘pincha o‘z mehnat-i ortidan ro‘zg‘or tobratadi. Uyda bola-chaqasi, oilasi kutib turgan paytda inson har doim ham jur‘at haqida o‘ylay olmaydi.

Qolaversa, bugun jurnalistlarning ham, blo-gerlarning ham moddiy ta’minoti yuqori emas. Natijada jurnalist ayrim masalalarda jur‘at qila olmasa, bloger o‘z jur‘atini kimlarningdir manfaat-lariga xizmat qildirish xavfi ham paydo bo‘ladi. Shu sababli bu masala faqat media vakillari emas, balki davlat siyosati darajasida ham jiddiy o‘ylab ko‘rili-shi kerak bo‘lgan masalalardan biridir.

Chunki jamiyatga mas’uliyatli, mustaqil fikrlay-digan va moddiy jihatdan barqaror jurnalist ham, bloger ham zarur.

- Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni munosabati bilan sohaga ilk qa-dam qo‘yayotgan yigit-qizlarga tilak va tavsi-yalaringiz?

- Qayd qilingan muammolar hal etilishini, jur‘at qilish imkoni katta bo‘lishini tilayman!

Otabek UMIROV suhbatlashdi.

Yarim asr davomida matbuotga sodiq qolgan Toshpo‘lat Toshmurodov faoliyati haqida so‘z Jurnalistika oson kasb emas. Bu sohada yillab mehnat qilish, o‘quvchi ishonchini qozonish, zamon bilan hamnafas bo‘lib yashash katta sabr va matonat talab etadi. Umrini matbuotga bag‘ishlagan shunday insonlardan biri Toshpo‘lat Toshmurodovdir.

Muharrirlik mashaqqati

Toshpo‘lat aka mehnat faoliyatini 1974-yilda Narpay tumanidagi “Paxta-kor ovozi” gazetasi-da boshlagan.

Tahririyatda musahhih, mux-bir, bo‘lim mudiri, mas’ul kotib sifa-tida ishlab, gaze-tachilikning barcha bosqichlarini bosib o‘tdi. Bu yillar davomida uning qalami charxlandi, hayotning dolzarb mavzularini yoritish-da tajriba to‘pladi.

1985-yilda Toshpo‘lat aka gazeta mu-harriri etib tayinlandi. Bu vazifa katta mas’uliyat talab qilardi. Haftasiga bir necha marta chop etiladigan gaze-tani tayyorlash, ijodiy jamoa faoliyatini tashkil etish, mate-riallarning sifatini ta’minlash oson ish emasdi. Ammo u o‘z mehnati va tajribasi bilan bu vazifani munosib bajardi.

U kishi jurnalist sifa-tida haqiqatni aytishdan cho‘chimasdi. Maqolalarida muammolarni ochiq aytar, har bir fikrini dalillar bilan asoslashga harakat qilardi.

Men tahririyatga ishga kelgan paytlarda u yosh jurnalistlarga maslahat berar, “Jurnalist doimo o‘qishi, izlanishi va yozishi kerak. O‘z ustida ishlamaydigan odam yaxshi muxbir bo‘lolmaydi”, derdi.

Ustoz qirq bir yildan buyon muharrir sifatida faoliyat yuritib kelmogda. Bu yillar davomida qanchadan-qancha qiyin-chiliklar, tashvishlar va mas’uli-yatli kunlar bo‘ldi. Toshpo‘lat aka har qanday vaziyatda ham kasbiga sodiq qoldi.

Uning rahbarligida gaze-ta o‘z o‘quvchilarini topdi, ko‘plab iqtidorli yoshlar jur-



nalistikaga kirib keldi. Bugun ularning ko‘pchiligi mam-lakatimiz ommaviy axborot vositalarida samarali mehnat qilmoqda.

- Matbuot xalq hayotining ko‘zgusi bo‘lishi kerak, - dey-di ustoz. - Gazetadagi har bir maqola o‘quvchini o‘ylantirsa, unga manfaat keltirsagina, vazifasini bajargan bo‘ladi.

T.Toshmurodov jurnalis-tikadagina emas, balki jamoat arbobi sifatida ham el orasida hurmat qozondi. Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va xalq deputatlari tuman Ken-gashidagi faoliyati davomida odamlarga yordam berdi, joylardagi kamchiliklarni ye-chishga hissa qo‘shdi.

Umr yo‘ldoshi Gulchehra yanga bilan farzandlar tarbi-yalab voyaga yetkazdi. Bugun ular nevaralar qurshovida baxtli hayot kechirmoqda.

Toshpo‘lat Toshmuro-dovning hayot yo‘li mehnat, sabr va fidoyilik namunas-i. Yarim asrlik mehnati davo-mida qanchalik qiyinchiliklar-ga duch kelmasin, ustozda kasbiga bo‘lgan muhabbat, xalq ishonchini qozonishga bo‘lgan intilish so‘nmadi.

Jo‘shqin DOVUROV.

Tahririyatda ularning izlari bor...



1996-yilning iyulida Samarqand davlat universitetini bitirib, «Zarafshon» gazetasi tahririyatiga kelgan edim. Ikki kun bosh muharrirning qabuliga kirolmay qaytib ketganman. Kursdoshlarim Uyg'un Ro'ziyev va Mannob Ibodullayevlar ham shu yerga ishga kirish uchun kelgan ekan. Keyinchalik yana ikki kursdoshimiz - Hakim Jo'rayev va G'ofir Yaxshiyev bizga qo'shilishdi.

Dilmurod TO'XTAYEV.



Mazkur maqolaning to'liq matnini ushbu QR-kod orqali o'qishingiz mumkin.

Ha, shunday, jurnalist bo'lishni hech qachon orzu qilmaganman. Bolalikda katta amaldor yoki tadbirkor bo'lishni xayol qilardim. Chunki eng ko'p hurmat ko'rayotgan, yaxshi yashab, katta imkoniyatga ega bo'layotgan insonlar aynan ulardek tuyulardi menga. Vaqt o'tib, haqiqatni yozish ham kasb, adolat uchun kurashish sharaflari va mas'uliyatli vazifa ekanini tushundim.

Yashirmayman, «Zarafshon» gazetasi tahririyatiga ilk bor kelganimda bitta axborotni besh marta qayta yozganimda ham us-tozlarim «shunchalik bo'ladimi?» demagan. Sabr bilan, to'g'ri maslahat berib, yo'l ko'rsatgan. Qaysidir mavzuda yozmoqchi bo'lsam, nafaqat o'zim guvoh bo'lgan voqea-hodisalarni yori-

JURNALISTIKA MENI TANLADI

tish, balki odamlarning dardini eshitish, tashvishini his qilish, muammoning mohiyatini ochib berish kerakligini ham aynan ular o'rgatgan.

Masalan, «Mahallada ichimlik suvi muammosi bor», degan jumlaning yozish juda oson. Ammo o'sha mahallada har kuni minglab kilometr masofadan suv tashishga majbur bo'layotgan onaxonni ko'rsangiz, bu gapning ma'nosi ham, «og'irligi» ham butunlay o'zgaradi. Ustozlarim menga jurnalistikaning aynan shunday nozik jihatlari va faqat maqola yozishni emas, har bir holatda inson taqdiri, qadr-qimmatini anglashni o'rgatdi. Shuning uchun ham jurnalistning asosiy quroli kamera emas, balki ishonch deb hisoblayman. Odamlar o'z dardini bemalol aytishi, muammosini ochiq bayon qilishi uchun avval jurnalistga ishonishi kerak. Bu ishonchni esa na diplom, na xizmat gu-



vohnomasi beradi. Uni faqat halol mehnat, xolislik va mas'uliyat bilan qozonish mumkin.

Kasb yuzasidan turli insonlar bilan uchrashamiz. Ba'zilar muxbirni ko'rsa, «Endi muammo-miz hal bo'ladi», deb umid qiladi. Ayrimlar esa jurnalist kelganidan xavotirga tushadi. Chunki haqiqat har doim hammaga yoqavermaydi. Lekin jurnalistning vazifasi kimnidir maqtash yoki qoralash emas, aksincha, uni jamiyatga yetkazishdir. Ko'pchilik jurna-

listika deganda televideniya ko'rinish, ijtimoiy tarmoqlarda tanilish yoki mashhurlikni tasavvur qiladi. Aslida esa bu kasbning ko'rinmaydigan tomonlari ko'proq. Mashaqqatli mehnat, doimiy izlanish, manbalarni o'rganish, faktlarni tekshirish jurnalistning kundalik ishidir.

Ustozlarim aytganidek, haqiqiy jurnalist ko'chadagi chuqurni ham, maktabdagi kamchilikni ham, shifoxonadagi uzun navbatni ham o'ddiy holat deb qabul qila olmaydi. Chunki u har bir muammo ortida inson hayoti, orzu-umidi va taqdiri turganini his qilib yashaydi. Bu soha menga odamlarni tushunishni, ularning dardi va quvonchini his qilishni, eng muhimi, halol yashashni o'rgatdi. Bugun ham o'zimni to'laqonli jurnalist deb atashga shoshilmayman. Chunki bu maqom xalq ishonchi bilan beriladi va bunga erishish uchun intilishdan to'xtamayman. Bu yo'lda meni qo'llab-quvvatlayotgan barcha ustozlarimdan minnatdorman. Bayramingiz muvofiq bo'lsin, aziz ustozlar, qadrli hamkasblar!

Fazliddin RO'ZIBOYEV.

Hamkasb xotirasi

Har bir inson o'z xotirasiga ega. Bu hayotda yashar ekanmiz, avvalo, ota-ona, tug'ishganlar, qarindosh-urug', do'stu tanishlar bilan turli manzillarda yo'llarimiz duch keladi, ba'zida bu yo'llar ko'p davom etmaydi, ammo yurakda chuqur iz qoldiradi. Yillar o'tib, ish bilan band bo'lib, ba'zilarini unutib borarkansiz. Ammo ularning eng yaxshi xislatlari qalbingizda abadiy muhrlanadi. Otamdan, jon jigarim akamdan, so'ngra onamdan ajralgan paytlarim Oysanam bilan dardlashardim. U ham akasi vafotini eslab, yozgan she'rini o'qib berib, rosa yig'lagandi. Mana, bugun u haqda xotirlamoqchiman.

Muallimga aylangan muharrir

Oysanam boshqa yaqinlari uchun qanday, bilimadim-u men uchun oydaqi sanam edi. O'ziga yetgulik iqtidor, rahbarlik qobiliyati, to'g'riso'zlik, hozir-javoblik, joyi kelganda, qattiqqo'llik kabi xislatlar egasi edi.

Oysanam bilan Toshkentda, Milliy universitetda o'qish davrida, bundan 38 yil avval tanishgan edik. U bizdan ikki yil avval o'qishga kirgan bo'lib, men Qo'shrabotdan, u Oqdaryo tumanidan poytaxtga borib tahsil olardik.

Samarqandning Ishtixon tumanidan Muqaddam Hayitova, Qo'shrabotdan Hulkar To'ymanova, Oqdaryodan Gulsara Tinbekova, Nigora Rahimova, Oysanam To'raqulova va men universitetning jurnalistika fakultetining sirtqi bo'limida turli kurslarda tahsil olsak-da, sessiyada bir vaqtda bo'lganligimiz tufayli juda ahil edik. Bundan tashqari, Oysanam ikkimiz

kasbdosh, radiojurnalist sifatida ishlardik. U vaqtlarda tumanlarda radio eshittirish redaksiyalar bo'lib, viloyat radio eshittirish qo'mitasining tuman filiallari faoliyat yuritardi. Oysanam Oqdaryo tuman radio eshittirish redaksiyasi muharriri bo'lib ishlar, men Qo'shrabot tuman radiosida suxandonlik qilardim.

Keyinchalik universitetni tamomlagach, oila tashvishlari, ish bilan ovora bo'lib qoldikmi, avvalgidek uchrashmay qoldik. 1998-yilda men Qo'shrabot tuman gazetasida ishladim. Oysanam To'raqulova viloyat xalq ta'limi boshqarmasi muassisligidagi «Ma'rifat nuri» gazetasiga muharrir bo'lib tayinlandi. Gazetaning o'qilishligini oshirish, tajribali pedagoglarning ishlarini ommalashtirish, maktablarda ijodkor o'qituvchilar ijodini gazeta sahifalarida yoritib borishni tahriri-



yat xodimlari oldiga vazifa qilib qo'ydi va bu borada o'zi ham fidoyilik bilan ish olib bordi. Tahririyatda ustoz-shogird an'anasini kuchaytirgan, xodimlarga nisbatan mehribon rahbar edi.

Oysanam To'raqulovning hali qiladigan ishlari juda ko'p edi... Afsus, bu hayotni juda erta tark etdi. Bugun uning farzandlari barchasi oliy ta'limotli, jamiyatning turli sohalari faoliyat ko'rsatishadi. Endi ularning kamolini ko'rib, nevara suyuq vaqti edi. Oysanamdan qobil farzandlar, o'qishli maqolalar, ezgu nom qoldi.

Anora NORBOYEVA, Qo'shrabot tumani.

REKLAMA, E'LONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada ikki marta - chorshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e'lonlar tezkor, samarali va hamyonbop / MUHOJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

“IPAK YO‘LI” TURIZM VA MADANIY MEROS XALQARO UNIVERSITETI

2026-2027-o'quv yili uchun yuqori malakali professor-o'qituvchilarni quyidagi yo'nalishlarga tanlov asosida

ISHGA TAKLIF QILADI

1. Turizm va mehmondo'stlik;
2. Iqtisodiyot;
3. Menejment;
4. Moliya;
5. Ekonometrika;
6. Tarix, arxeologiya, muzeyshunoslik.

Mehnat staji: Oliy ta'lim sohasida kamida 1 yil ish stajiga ega bo'lishi lozim. (TOP-1000 ro'yxatidagi oliy ta'lim muassasalarini tugatgan nomzodlarga qo'shimcha ball beriladi.)

Xorijiy tilni bilish darajasi: Rus va ingliz tillarini bilishi, ingliz tili (IELTS 6,0 yoki davlat test markazi tomonidan beriladigan chet tilini bilish to'g'risidagi sertifikat-CEFR B2 darajasida bilishi).

Kompyuter savodxonligi: Microsoft Office (Word, Excel, Power point) ofis dasturlarini mukammal bilish, internet va ijtimoiy tarmoqlardan foydalana olish hamda internet tarmog'ida ishlash bo'yicha amaliy ko'nikmalarga ega bo'lish.

Professor-o'qituvchilarning lavozim uchun malaka talablari:

- oliy ma'lumot (magistr diplomli mutaxassis), shuningdek, ilmiy darajaga (shu jumladan, xorijiy mamlakatlarning falsafa doktori (PhD) darajasiga yoki unga tenglashtirilgan boshqa ilmiy darajalarga) ega bo'lgan;
- ilmiy-tadqiqot hamda amaliy faoliyat bo'yicha yetarli ish tajribasiga ega bo'lishi, ilmiy izlanishlar olib borish, grant loyihalarida ishtirok etish, ilmiy maqolalar chop etish (jumladan, Scopus va Web of Science ma'lumotlar bazalarida indekslangan jurnallarda hamda nufuzli mahalliy va xalqaro jurnallarda), amaliy loyihalarini ishlab chiqish va joriy etish, o'z ilmiy yo'nalishi doirasida innovatsion g'oyalarni ilgari surish qobiliyatlariga ega bo'lishi lozim;

- pedagogik faoliyatida zarur bo'lgan kasbiy va tashkilotchilik qobiliyatlariga, faoliyat turi va vakolatlari doirasida tegishli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish;

- Hemis va LMS (Learning Management System) platformalarida samarali ishlay olishi, o'quv jarayonini raqamli tizimlar orqali boshqarish, fanlar bo'yicha o'quv materiallarini joylashtirish, baholash jarayonlarini yuritish, talabalar faolligini monitoring qilish hamda masofaviy ta'lim texnologiyalaridan samarali foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim;

“Ipak yo'li” turizm va madaniy meros xalqaro universiteti nomzodlarga quyidagilarni ta'minlaydi:

- barqaror oylik maosh (ustama haqi mavjud);
- istiqbolli karyerani nazarda tutgan qiziqarli mehnat faoliyati.

Ish tartibi: dushanbadan juma kunigacha Dam olish kuni: shanba va yakshanba.

Hujjatlarni topshirish muddati: 2026-yil 25-iyul (shu kuni ham soat 18:00 ga qadar).

Nomzodlardan hr-dep@univ-silkroad.uz elektron manziliga va +99893-523-22-95 telegram raqamiga quyidagi ma'lumotlarni yuborishi so'raladi:

- ma'lumotnoma (obyektivka);
- diplom (bakalavr, magistr ilovalari bilan);
- ilmiy darajasi va ilmiy unvon to'g'risidagi diplom nusxasi (mavjud bo'lsa);
- chet tilini bilish sertifikat;
- ilmiy maqolalar ro'yxati.

Ma'lumot uchun telefonlar:
+99866-240-67-73,
+99866-240-67-68.

DA'VOLAR BO'LSA...

Narpay tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Qurbonov Azizjon Ro'ziyevich notarial idorasida marhum O'taganov Aktam Meyliyevichga (2021-yil 14-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Qurbonov Azizjon Ro'ziyevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Narpay tumani Oqtosh shahri, Imom Buxoriy ko'chasi.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ashurova Dilafruz Ziyodullayevna notarial idorasida marhum Mamatkulov Saytkul Sanakulovichga (2025-yil 30-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ashurova Dilafruz Ziyodullayevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 110-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Qodirova Mavluda Turanboyevna notarial idorasida marhum Murodov Achilga (2025-yil 14-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Qodirova Mavluda Turanboyevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Farhod ko'chasi, 34-uy.

Bulung'ur tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Salimov Otabek Mamayusupovich notarial idorasida marhum Djiyaymurotova Xurmatga (2013-yil 6-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Salimov Otabek Mamayusupovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Bulung'ur shahri Mustaqillik maydoni.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Qodirov Ulug'bek Tolibovich notarial idorasida marhum Akramov Abdumadjit Xamdamovichga

notarius Bahromova Feruza Zoirovna notarial idorasida marhum Sharopova Safiyaga (2022-yil 10-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Bahromova Feruza Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Gagarin ko'chasi, 121-uy.

Oqdaryo tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Sa'dullayev Jamshidxon Safoxonovich notarial idorasida marhum Jabborov Islomga (2017-yil 25-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Sa'dullayev Jamshidxon Safoxonovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Oqdaryo tumani Loyish shaharchasi Amir Temur ko'chasi.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Yusupova Iroda Rustamovna notarial idorasida marhum Safarova Gaxvarga (2013-yil 10-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Yusupova Iroda Rustamovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Bog'dod ko'chasi, 1-uy, 3-xona.

Narpay tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Eshniyozov Dilshod Qurbonovich notarial idorasida marhum Tursunov Shavkat Usmanovichga (2025-yil 17-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Eshniyozov Dilshod Qurbonovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Narpay tumani Nog'oraxona mahallasi.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Qodirov Ulug'bek Tolibovich notarial idorasida marhum Akramov Abdumadjit Xamdamovichga

(2021-yil 13-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Qodirov Ulug'bek Tolibovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Ibn Sino ko'chasi.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Zikirova Shahlo Habibovna notarial idorasida marhum Ablyayeva Irma Nikolayevnaga (2024-yil 12-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Zikirova Shahlo Habibovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Amir Temur ko'chasi, 156-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Shukurova Lobar Olimjon qizi notarial idorasida marhum Raxmankulov Nodir Muxtarovichga (2022-yil 12-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Shukurova Lobar Olimjon qizi notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Spitamen shohko'chasi, 157-“B” uy. Mo'ljal: Samarqand viloyati IIB YHXB, shahar mudofaa loyihari bo'limi.

Narpay tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Qurbonov Azizjon Ro'ziyevich notarial idorasida marhum Daminova Bustonga (2024-yil 6-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Qurbonov Azizjon Ro'ziyevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Narpay tumani Oqtosh shahri, Imom Buxoriy ko'chasi.

BEKOR QILINADI
 Narpay tumanidagi Narpay mahalla fuqarolar yig'ining dumaloq muhri va burchak tamg'asi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.



Samarqanddan gapiramiz

Oʻttiz yil davomida radio orqali har kuni shu soʻzlarni aytib efirga chiqqan Oʻzbekistonda xizmat koʻrsatgan jurnalist Obloqul Usmonqulovni samarqandliklar yaxshi taniydi. Bu yillar davomida Samarqandda u bormagan qishloq, xoʻjalik qolmagan, desak mubolagʻa boʻlmaydi. Viloyat hududlaridagi har bir yangilik, voqea-hodisa yoki yuzaga kelgan muammo va nuqsonlar haqida joyidan xabar, reportajlar tayyorlab, xalqqa yetkazishga intilgan. Uning nomi, ovozi hatto filmlarda ham yozib olingan va tarixga muhrlangan. Bugun 90 yosh ostonasida turgan ustoz jurnalist aslida bu boradagi faoliyatini maktab davridayoq boshlagan.

– Ota-onamizdan erta ajralib qolganimiz uchun yaqin qarindoshlarimiz qoʻlida tarbiyalanganmiz, – deb yoshlik yillarini eslaydi Obloqul Usmonqulov. – Balki ana shu murakkab taqdir yoʻli tufayli bolaligimdan qoʻlimga qalam olib, koʻrgan-kechirganlarimni yozib yurardim, kundalik tutardim va gazetalariga xat-xabarlar yuboardim. Payariq tumani tashkil etilgach, gazeta ochilib, 1954-yilda meni shu gazetaga texnik xodim sifatida ishga qabul qilishdi. Bu paytda qishloq maktabining 9-sinfida oʻqirdim. Uch yil shu yerda ishlagach, maktabni bitirib, Oʻrta Osiyo davlat universitetida oʻqidim. Keyin Samarqand viloyatining bosh gazetasi – “Lenin yoʻli” (hozirgi “Zarafshon”) gazetasida faoliyat boshladim. Adabiy xodim, adabiy kotib, masʼul kotib oʻrinbosari, masʼul kotib boʻlib ishladim.

Obloqul Usmonqulovning Samarqand viloyat radioeshittirish qoʻmtasidagi faoliyati 1967-yildan boshlangan va nafaqaga chiqquniga qadar, 1998-yilgacha shu yerda ish olib bordi. Respublika radiosining viloyat boʻyicha oʻz muxbiri, Samarqanddagi muxbirlik punkti mudiri – katta muharriri boʻlib ishladi.

– 1974-yilda Bektosh Rahimov Samarqand viloyati rahbari boʻlib kelgach, menga u kishidan qishloq xoʻjaligi boʻyicha 15 daqiqalik intervyu olish topshirigʻi berildi, – deydi Obloqul Usmonqulov. – Bektosh aka bilan oʻshanda tanishgandim. Bu paytda u kishi ikki viloyatni boshqarib, boy tajriba toʻplagan, juda bilimli rahbar, mahoratlili notiq edi. Intervyuni qisqa fursatda yozib oldik. Keyin biroz suhbatlashdik, hududlardagi muhim masalalar, ish jarayonim haqida soʻradi. Shu bilan birga, Samarqandni yanada obod qilish uchun oʻzining rejalari haqida gapirdi. Bektosh akaning ommaviy axborot vositalariga munosabati juda yaxshi edi, jurnalistlarni hurmat qilardi. Shuning uchun boʻlsa kerak, birga ishlaymiz, menga yordam berasizlar, deb hokimlikdan xona qilib berdi. Qaerga boradigan boʻlsa, yigʻilishlar oʻtkazadigan boʻlsa, bizlarni ham taklif qilar, tadbirdan soʻng esa fikrimizni soʻradi. Radioda Samarqanddan beriladigan har bir eshittirishni tinglab borar, gazetadagi maqolalarni oʻqir va keyin bu haqda boshqa rahbarlardan ham soʻrardi. Materiallarda koʻtarilgan muammolar hal etilishini nazoratiga olardi. Hayotim davomida ommaviy axborot vositalari vakillari, ziyolilarga bunday munosabatni Shavkat Mirziyoyev faoliyatida, u kishi viloyatimizda birinchi rahbar boʻlib ishlaganida ham koʻrdim.

2003-yilda viloyat televideniyesi-da “Nuroni” studiyasi tashkil etildi. «Nuroni» jamgʻarmasi viloyat boʻlimi raisi, Hasan Normurodov yordami bilan



ushbu studiyada oʻn yil davomida 150 dan ortiq koʻrsatuv tayyorladi, samarqandlik keksa avlod vakillari-niing hayoti, tajribasi va yoshlarga ibratini targʻib etdi.

Qariyb bir asrlik hayot yoʻlini bosib oʻtayotgan Obloqul Usmonqulov shu yoshida ham yangi gʻoya va tashabbuslar bilan shogirdlariga, farzand va nabiralari namuna boʻlmoqda. U hozir “Nuroni” jamgʻarmasi Samarqand shahar boʻlimi qoshidagi Kitobsevarlar koʻngilli jamiyati rahbari sifatida aholi oʻrtasida kitob va kitobxonlikni keng targʻib etish borasida ish olib bormoqda. Eʼtiborlisi, bu jamiyatni xalqimizning sevimli yozuvchisi Abdulla Qahhorning umr yoʻlidoshi Kibriyo Qahhorova nomi atab, Samarqandning dilbar qizi nomini abadiylashtirishga hissa qoʻshmoqda.

Bundan tashqari, ustoz jurnalist oʻzi tugʻilib oʻsgan Payariq tumanidagi Turkibola mahallasida moʻjaz bogʻi va uy-muzeyi tashkil etgan va bu yerda tez-tez ijodiy uchrashuvlar, maʼrifiy suhbatlar oʻtkaziladi. – Bugun yurtimizda kechayotgan shiddatli islohotlarga shunchaki tomoshabin emas, faol ishtirokchi boʻlish zarur, – deydi Oʻzbekistonda xizmat koʻrsatgan jurnalist, “El-yurt hurmati” ordeni sohibi Obloqul Usmonqulov. – Qararg, davlatimiz rahbari Yangi Oʻzbekiston taraqqiyoti uchun, xalqimizning baxti va farovon yashashi uchun tunu kun tinim bilmay ishlayapti. Vatanga sadoqatini, elga mehrni u kishidan oʻrganishimiz kerak. Ayniqsa, biz – jurnalistlar, ommaviy axborot vositalari vakillari bu yangilanishlar, oʻzgarishlar mohiyatini xalqimizga, yoshlarga yetkazishimiz, tushuntirishimiz zarur, deb oʻylayman.

Gʻ.HASANOV.

Inson oʻzining ulgʻayish nuqtasi qaerda boshlanganini eslashi unchalik qiyin emas. Men uchun bu nuqta bundan rosa yigirma toʻqqiz yil avval, dadamning issiq kaftidan tutib, tahririyat ostonasiga ilk bor qadam qoʻygan kunim edi. Oʻshanda roppa-rosa oʻn bir yoshda edim. Dunyo koʻzimga kattakon bir kitob boʻlib koʻrinardi-yu, oʻzimni shu kitobning eng chetidagi kichkina bir harfdek his qilardim goʻyo.

Qiziq, dadam mening ichimdagi oʻsha mitti, hali tili chiqmagan olovni qaerdan koʻra qolgan ekan? Qaysi harakatimda, qaysi bir xayolchan qarashimda payqagan ekan oʻsha uchqunni haligacha bilmayman, haligacha hayron qolaman. Ha, ota yuragi doimo sergak turarkan. Avvaliga ustozim oxirlari obod boʻlsin, Qahramon Norboyevning yonlariga, soʻngra qoʻlimga mitti daftar-chamni mahkam qisib olgancha, hayajondan tizzalarim qaltirab, “Paxtachi” gazetasi tahririyatining muqaddas ostonasidan hatlab oʻtdim.

Esleysizmi, dada? Oʻsha kundagi Qahramon Norboyev siymosi hamon koʻz oldimdan ketmaydi. U kishi oʻshanda hali yosh edilar. Nigohlari shunday oʻtkir, soʻzlashi shunday salobatli ediki, u zotning har bir kalomi men uchun butun boshli bir olam edi. Goʻyo men oddiy muallimning xonasida emas, balki Hazrat Navoiyning roʻparalarida

Nega hamon gazetaga yozyapman?

turgandek edim... Aʼzoyi badanimdan haybat va hayajondan sovuq ter chiqib ketgandi.

Bilasizmi, “Paxtachi” gazetasi tahririyatiga kirib borgan oʻsha kunim dimogʻimga urilgan yangi bosma qogʻoz va tahririyat siyohining hidi miyamga shunday oʻrnashib qoldiki, keyinchalik eng qimmatbaho fransuz atirlari ham koʻnglimni bu hidchalik entiktira olmadi. Yozgan ikki qator mashqim gazeta sahifasida chiqib, tagida ism-sharifimni koʻrganimda, chamasi dunyodagi barcha podshohlar taxtidan tushib, menga taʼzim qilgandek tuyulgandi. Odam bolasi qiziq, bir marta qogʻoz hidini hidlab, siyohning sehriga ilindimi, tamom, uni keyin hech qanday kuch bu yoʻldan qaytara olmaydi.

Zotan, inson shunchaki oʻz-oʻzidan shakllanib qolmaydi. Uni hayot atalmish buyuk ustaxonada oʻz soʻzi, oʻz feʼl-atvori bilan chiniqtiradigan, yoʻliga mayoq yozadigan shaxslar boʻladi. Men ham mana shu tabarruk dargohda nafaqat ijod qonuniyatlarini, balki eng goʻzal insoniy saboqlarni oʻrgandim.

Qalbimda mangu muhrlangan oʻsha yillarda adabiyotning, jurnalistikaning haqiqiy dargʻalari muhtaram ustozlarim Farmon Toshev, Ismat Sanayev, Mehridin Shamsiyev, Murodulla Shukurov va Egamnazar Tongotarovlarning har bir oʻgitidan toʻlib-toshdim. Ularning har bir darsi qalamimga salobat, fikrimga teranlik bagʻishladi. Tahririyatning fayzli muhitida esa men uchun har doim yelkadosh, suyanchiq boʻlgan, onamdek mehribon Jamila opamning samimiyati va har bir yutugʻimdan quvongan koʻzlari hamon yodimda.

Vaqt oʻtib, ish joylarim oʻzgardi, vazifalar oʻzgardi, hatto taqdir taqo-



zosi bilan bugun boshqa bir viloyatda xizmat qilib, ijod etib yuribman. Allohning menga atab qoʻygan mana shu rizq darchalari, ijod eshiklari shunchalik keng ekaniga ming bor shukr keltiraman.

Qay goʻshaga qadam bosmay, qaysi vazifada ishlamay, baribir qalbim oʻsha qogʻoz hidi va matbaa siyohining sehidan uzoqlasha olmadi.

Bilasizmi, nazarimda ichimda oʻsha, oʻn bir yoshli mitti qizcha hamon yashamoqda. Masofalar oʻzgardi, sochlaringa oq, yuzlaringa hayot tajribasi muhrlandi, ammo qadrdon dargohim va oʻsha unutilmas xotiralari qalbimning eng toʻrida muqaddas bir tumor kabi saqlanib qoldi. Bugun goho ijtimoiy tarmoqlardagi sahifamni koʻzdan kechirarkanman, virtual dunyoning oʻta shoshqaloq, oʻta yuzaki ekanidan ich-ichimdan charchayman. Smartfon ekranidagi birgina barmoq harakati bilan tepaga qarab uchib ketayotgan, umri bir soniyalik “post”lar, oʻtkinchil “layk”lar...Bularning hammasi shakarqandga oʻxshaydi goʻyo. Tildagi mazasi tez oʻtadi, ammo

vujudni toʻydirmaydi, qalbni sira ham yoritmaydi.

Odamlar hozir hamma narsani tez va oson isteʼmol qilishga oʻrganib qoldi. Biroq shoshilinch yozilgan narsaning qismati ham shoshilinch unutilish boʻlarkan. Bu narsa koʻp bor sinovimdan oʻtdi. Ishonavering. Bobomiz Abdulla Qahhor hikoyalardagi oʻsha pishiq, har bir soʻzi taroziga qoʻyib aytilgan, ortiqcha bitta boʻyoq ishlatilmagan teranlikni bugungi virtual shovqin-surondan topib boʻlmaydi. Bir soʻz bilan Qahhorona ibora ostida aytadigan boʻlsam, gap matnning kattaligida emas, uning magʻzida, suyak-suyagigacha yetib boradigan taʼsiridadir. Soʻzning haqiqiy jozibasi tomiringdagi qoningga qoʻshilib oqmas ekan, u bekor.

Ha, men hamon gazetaga yozyapman. Chunki gazeta aslo oʻtkinchi moda emas, u – vaqt elagidan omon oʻtadigan xotira hujjati. U oʻquvchidan shoshmaslikni, bir piyola choy ustida, chuqur nafas olib, fikrlashni talab qiladi. Bilasizmi, aynan mana shu muvozanat, mana shu sokin mulotot meni hamon oʻziga tortadi.

Bugun sochimdagi oqlar ham, hayotning achchiq-chuchugini koʻrgan koʻzlarim ham tahririyat ostonasiga kelganda yana oʻsha samimiyatni, oʻsha ilk hayajonni qidiradi. Men uchun eng yuksak baxt shuncha yillar oʻtsa ham, bu muqaddas dargoh eshiklarining men uchun hamon lang ochiqligidir. Bu mening tirikligim, ijodiy nafasim qotib ulgurmaganining isboti desam, mutloq adashmayman.

Ha, men hamon gazeta-ga yozyapman. Chunki u meni hamon bolaligimga, oʻsha begʻubor mitti qizchaning dunyosiga qaytaradi. Unda ustozlarim Qahramon Norboyevning menga ishonch bilan boqqan nigohlari, Farmon Toshev bilan har bir satr ustida zargardek ishlagan tunlarimizning yodi bor. Toki barmoqlarim qalam tutishga qodir ekan, toki koʻnglimda odamlarga aytadigan soʻzim bor ekan, bu muqaddas sadoqat rishtasi aslo uzilmaydi.

Masofalar yiroq, vazifalar ulkan boʻlsa-da, men baribir yozishda, oʻz soʻzimni qogʻoz tamadduniga muhrlashda davom etaveraman.

Gulchiroy ABDULLAYEVA.

Inson umri – bu, faqat yillar yigʻindisi emas, balki tanlangan yoʻl, qoldirilgan iz va jamiyatga bergan naf bilan oʻlchanadi, degan haqiqatni ustozlardan oʻrganganman.

13 yillik jurnalistik faoliyatim ham aynan shu ezgu gʻoyaning amaldagi ifodasi boʻlib, soʻzga hurmat, haqiqatga sadoqat, kasbiy masʼuliyat maktabiga aylandi.

IJODGA ILK QADAM – “ZARAFSHON” MAKTABI

Jurnalistikadagi ilk qadamimni viloyatimizning bosh nashri – “Zarafshon” gazetasida boshladim. Gazeta bosh muharriri, ustoz Farmon Toshevning “jurnalistning noni qattiq boʻladi, bolam” degan soʻzining maʼnosini oʻsha payt toʻliq anglamagan boʻlsam-da, yillar davomida uning hayotiy haqiqat ekanini his qildim.

Ustozning minnatsiz mehnati, samimiyati va shogirdparvarligi tufayli bu dargohdan oʻnlab ijodkorlar yetishib chiqdi.

Aynan shu muhit menga soʻzning qudratini, tahlilning masʼuliyatini, tanqidning yukini his ettirdi.

Jurnalistika oddiy kasb emas, balki jamiyat hayotini kuzatish, uning dardlarini tinglash va yechim izlash ekanini oʻrgatdi. Faoliyatim davomida tayyorlangan materiallarim orqali jamiyatdagi ayrim muammo-

UMR YOʻLIMDA IZ QOLDIRGAN KASB

lar ochiqlandi, turli sohalaridagi yutuq va kamchiliklar xolis baholandi. Bu jarayon men uchun faqat ijod emas, balki jamiyat oldidagi masʼuliyatni his etish maktabi boʻldi.

JAMOATCHILIK FAOLIYATI – MASʼULIYAT VA TAJRIBA MAKTABI

Oʻzbekiston Jurnalistlar uyushmasi viloyat boʻlimida mutaxassis sifatida olingan tajriba men uchun haqiqiy tashkilotchilik va masʼuliyat maktabi vazifasini oʻtadi.

Minglab matbuot anjumanlari, brifinglar, press-tur va seminar-treninglar jurnalistika amaliyoti bilan nazariyasini uygʻunlashtirgan muhim maydonga aylandi.

Faxriy jurnalistlarning yubiley tadbirlari, kasb bayramlari va sport musobaqalarini tashkil etish jarayonlari esa men uchun alohida maʼnaviy zavq va ijodiy masʼuliyat manbai boʻldi.

USTOZLAR MAKTABI – HAYOT MAKTABI

Ustozlardan olgan eng katta saboq – bu xolislik, vijdon va soʻzga masʼuliyatdir. Shu bois bugun men barcha ustozlarimga cheksiz hurmat va minnatdorlik bildiraman.

Xususan, Farmon Toshev, Adham Hayitov, Togʻaymurod Shomurodov, Akram Haydarov, Gʻolib Hasanov, Mannob Ibodullayev, Gulruh Moʻminova, Abdugʻofur Sherxolov, Dilmurod Toʻxtayev, Yoqub Marqayev,



Toʻlqin Siddiqov kabi ustoz ijodkorlardan jurnalistika sirlarini oʻrganish men uchun katta maktab boʻldi.

Oʻn uch yillik ijodiy faoliyat davomida koʻplab hamkasblar bilan birga ishladim, tajriba almashdim va kasbiy jihatdan oʻsdim.

Olingan bilim va tajribani bugun yanada masʼuliyatli boʻlgan soha Respublika Maʼnaviyat va maʼrifat markazi viloyat boʻlimidagi faoliyatimda qoʻllab kelmoqdaman.

Fursatdan foydalanib, barcha hamkasblarim va ustoz ijodkorlarni 27-iyun – Matbuot va ommaviy axborot vositalari kuni bilan tabriklayman.

Husan ELTOYEV.



MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta Oʻzbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan roʻyxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 10 691 nusxada chop etildi. Buyurtma 247. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning chorshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA EʼLONLAR: (66) 233-91-56

BOʻLIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulugʻ Tursunov koʻchasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter boʻlimida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Korxona manzili: Samarqand shahri, Spitamen koʻchasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti:

soat 18:30 da.

Bosishga topshirildi:

soat 19:00

Navbatchi muharrir:

A.SHERXOLOV.

Navbatchi:

T.SIDDIQOV.


Sahifalovchi:

B.ABDULLAYEV.



Saytimizga oʻtish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X



Sotuvda narxi kelishilgan holda